

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-6

KICHIK VA O'RTA BIZNESNI KREDITLASHNI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI

Nazirov Ibrohimjon Sodiqjon o'g'li
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI
Iqtisodiyot tarmoqlar va sohalar bo'yicha
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlashni takomillashtirish va mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni hamda uni aholini ish bilan ta'minlashda eng muhim soha ekanligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, kichik va o'rta biznesning bugungi kundagi statistik ko'rsatkichlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: kichik va o'rta biznes sub'ektlari, kredit, statistik ko'rsatkichjlar, jamg'arma, kredit foizi, kompensatsiya, kredit liniyalari.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КРЕДИТОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА

Абстрактный. Было отмечено улучшение кредитования субъектов малого и среднего бизнеса и их роль в экономике страны, а также важнейшей отрасли в обеспечении занятости населения. Также представлены сегодняшние статистические показатели малого и среднего бизнеса.

Ключевые слова: субъекты малого и среднего предпринимательства, кредит, статистические показатели, сбережения, кредитный процент, компенсации, кредитные линии.

ISSUES OF IMPROVING LENDING TO SMALL AND MEDIUM-SIZED BUSINESSES

Abstract. Improvement of lending to small and medium-sized business entities and their role in the country's economy, as well as the most important sector in providing employment to the population, were mentioned. Also, today's statistical indicators of small and medium-sized businesses are presented.

Key words: small and medium business entities, credit, statistical indicators, savings, loan percentage, compensation, credit lines.

KIRISH

Shavkat Mirziyoyevning 2023 yilning 3-choragida tadbirkorlar va ishbilarmonlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvidagi o'z murojaatida o'zbek ishbilarmonlari turli mojarolar tufayli logistika va ta'minot zanjiridagi uzilishlar, yuqori global inflyatsiya sabab hamkor mamlakatlardagi valyuta devalvatsiyasi, moliyaviy resurslar narxining oshishi kabi omillar bilan kurashishga majbur bo'lganini ta'kidladi.

"Kamchiliklarimizdan to'g'ri saboq olib, olg'a intilsak, mehnatsevar va tashabbuskor xalqimiz har qanday qiyinchilikni, shubhasiz, yengib o'tishiga ishonaman", – deydi

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-6

davlat rahbari.Prezidentning ta'kidlashicha, bunday murakkab vaziyatda muammolar haqida bevosita biznes vakillarining o'zidan eshitish va birgalikda yechim topish eng to'g'ri yo'l bo'ladi.

Xususan O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 14.09.2023 yilda "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-306-sonli qaror aynan ushbu kichik va o'rta biznesni yo'lga qoyishga tadbirkorlarga katta imkoniyatlarni ochmoqda. Sababi aynan 100,0 mln.so'mgacha bo'lgan kredit mablag'lari garov ta'minotisiz ajratilinadi.

Hozir kichik va o'rta biznes korxonalari iqtisodiy o'sish ortishiga va ishsizlik, qashshoqlik kabi o'tkir ijtimoiy muammolarning birlamchi yechimlaridan biriga aylandi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikka keng erkinliklar berish orqali kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash ularni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan davlat dasturlari asosida banklar tomonidan imtiyozli kreditlash orqali hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, uning turmush tarzini yaxshilash va ish bilan bandligini oshirishga e'tibor qaratilishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Respublikada «kichik va o'rta biznes sub'ektlariga ko'rsatilayotgan xizmatlarning ko'lamni va sifatini, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko'rsatish orqali oshirish kabi vazifalar belgilab berilgan» banklarning kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlashni rivojlantirishga e'tibor qaratish topshiriqlar bermoqda.

Kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish bo'yicha kreditlash sohasidagi amalda yuzaga kelayotgan muammolarni chuqur tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Shuning bilan birga orttirilgan tajriba hamda xalqaro amaliyot kompleks va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi kredit olish imkoniyatidan iborat bo'lgan yaxlit tizimni shakllantirish yuzasidan tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tadqiqotning obyekti. Bozordagi kichik va o'rta biznes vakillari ya'ni tashkilotlarini o'rganish.

O'zbekistonda Kichik va o'rta biznes sub'ektlarini aniqlashda korxonada ishlovchilar soni mezon qilib olingan.

Kichik biznes korxonalariga, mulk shaklidan qat'iy nazar, yiliga sanoat korxonalarida o'rta hisobda 10 nafargacha, savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 5 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo'lgan mikrofirmalar; ishlab chiqarish sohasida yiliga o'rta hisobda 40 nafargacha, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarida 20 nafargacha, ilm-fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, chakana savdo hamda boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda 10 nafargacha ish bilan band xodimga ega bo'lgan kichik korxonalar kiradi.

O'rta biznes korxonalariga, kichik korxonalar uchun yiliga belgilangandan ortiq, lekin ishlab chiqarish sohasida 100 nafardan, qurilishda 50 nafardan, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarida, ulgurji savdoda 30 nafardan, chakana savdo, xizmat ko'rsatish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarda 20 nafardan oshmaydigan ish bilan band hodimga ega

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-6

bo‘lgan korxonalar kiradi.

Kichik va o‘rta biznes rivojlangan va rivojlanayotgan har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Kichik va o‘rta biznes sharoitga tez moslashuvchanlik bilan ajralib turadi, uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish katta miqdordagi dastlabki kapitalni talab qilmaydi. Kichik va o‘rta biznes yirik biznes uchun qulay bo‘limgan sohalarda avj oladi. Kichik va o‘rta biznes kichik bozorlarda faoliyat olib borish, mahalliy resurslardan foydalanish, ishsizlik muammosini xal qilish, mehnat unumdorligini oshirish, o‘rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish va ichki bozorni iste’mol tovarlari bilan to‘ldirishda muayyan afzalliklarga ega. Kichik korxonalar odamlarda sohibkorlik, tadbirkorlik, mulkka egalik qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularda ishbilarmonlik ko‘nikmalarini hosil qilish va rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

O‘zbekistonda Kichik va o‘rta biznes tarixiy ildizga ega. Bu yerda azaldan hunarmandchilik rivojlangan. To‘qimachilik, kosibchilik, kulolchilik, amaliy san’at, ganchkorlik, temirchilik, o‘ymakorlik bilan shug‘ulla-niladigan kichik-kichik ustaxona va do‘konlar ko‘p bo‘lgan. O‘zbekistonda mavjud Kichik va o‘rta biznes korxonalari sanoat, qurilish, savdo, maishiy, tibbiy, transport xizmatlari ko‘rsatish, ilmiy, texnikaviy axborot xizmati sohalarida, qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatadi. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladigan sug‘urta kompaniyalari, injiniring va lizing xizmati tashkilotlari mavjud. Kichik va o‘rta biznes korxonalariga ko‘maklashadigan Respublika va hududiy miqyosda faoliyat olib boruvchi Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, "Biznes-fond", "Madad" sug‘urta kompaniyasi tashkil qilingan Kichik va o‘rta korxonalar uchun soliq imtiyozlari, imtiyozli kredit ajratish tizimi ham mavjud.

Kichik va o‘rta biznes subyektlarining shakllari.

Kichik biznesning quyidagi shakllari mavjud:

- *Huquqiy maqomi bo‘yicha:* jismoniy va yuridik shaxs maqomida;
- *band bo‘lgan hodimlar soni bo‘yicha:* yakka tadbirkorlik, mikrofirma, kichik korxona;
- *mulkchilik shakli bo‘yicha:* xususiy, davlat, jamoa, aralash;
- *faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha:* ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, tijorat, moliyaviy va innovatsion tadbirkorlik faoliyati;
- *tadbirkorlikning qanday vazifani bajarishga yo‘naltirilganiga qarab:* ishlab chiqarishni boshqarish, moliyalashtirish, vositachilik va maslahatchilikka qaratilgan tadbirkorlik;
- *faoliyat turlarining soni bo‘yicha:* bitta va ko‘p tarmoqli tadbirkorlik;
- *faoliyat murakkabligi bo‘yicha:* maxsus bilim talab qilmaydigan, maxsus büim talab qiladigan, yuqori texnologiyaga va nodir bilimga asoslangan tadbirkorlik;
- *faoliyatining tarmoq yo‘nalishi bo‘yicha:* sanoat, agrosanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo umumiy ovqatlanish, mashiy xizmat ko‘rsatish, transport va aloqa, uy-joy va komunal xo‘jaligi tijorat va moliya, ta’lim va fan, qurilish va boshqa xalq xo‘jaligi tarmoqdagi tadbirkorlik.


THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-6

NATIJALAR

2023 yilda O'zbekistonda ro'yxatga olingan Kichik va o'rta biznes korxonalarining soni 523,5 mingtaga yetdi. O'zbekistonda Kichik va o'rta biznes iqtisodiy va huquqiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (1999-yil 14-aprel) va "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" (2000-yil 25-may) qonunlari bilan tartibga solinadi.

2010 yildan 2024 yil may oyigacha faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (yillik) 1-rasm



2010 yildan 2024 yil may oyigacha Viloyatlar kesimida Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni (Ming kishi) viloyatlar kesimida 2-rasm



THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-6

ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2023 yilda “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-306-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-75878>

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.11.2023 yilda “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlasri to‘g‘risida”gi PF-193-son . <https://lex.uz/docs/-6658633>

3.<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2>

4.https://uz.wikipedia.org/wiki/Kichik_va_o%CA%BBRTA_biznes

5. <https://cbu.uz/>

6. I.Salamov, T.Qudratov, I.Qudratova “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” Ma’ruzalar kursi Samarqand.2015 y

7. B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov “Iqtisodiyot nazaryasi” darslik Toshkent.2017 y